

## OILA HAQIDA AJDODLARIMIZ FIKRLARI

*Asaka tuman 1- son politexnikumi  
Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi  
Bozorboyeva Zuhraxon Xoshimjonov*

### Anotatsiya

Ushbu maqolada Odamlarimiz bilishi kerak. Biz uchun oila muqaddas, oilani saqlab qolmasak, biz o'zligimizni yo'qotamiz. Sh.M.Mirziyoyev.

Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Bozorboyeva Zuhraxon Xoshimjonovning professional ta'lim tizimida ishlovchi o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'limi ustalari uchun o'quv mashg'ulotlarida o'tkaziladigan "Ma'naviyat lahzasi"da foydalanish uchun "Oila haqida ajdodlarimiz fikrlari" mavzusidagi maqola

### Kirish.

Bugungi kunda xalqimizning o'z hayotidan rozi bo'lib yashashi, yoshlarning Yangi O'zbekistonning munosib vorislari bolib voyaga yetishlari uchun keng imkoniyatlarni yaratish Yurtboshimiz va hukumatimiz olib borayotgan siyosatning ustivor yonalishiga aylangan.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 19 mart kuni yoshlarni qo'llab- quvvatlash maqsadida ilgari surgan 5 tashabbusi o'quvchi talabalar hayotida ham tarixiy voqea bo'ldi.

Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr, va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish (birinchi tashabbus), ularni jismoniy chiniqtirish, sport sohasidagi qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish (ikkinchi tashabbus), aholi va yoshlar ortasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish (uchinchi tashabbus), yoshlar manaviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish (to'rtinchi tashabbus), xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash (beshinchi tashabbus) masalalari bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish borasida o'tgan davr mobaynida katta ishlar amalga oshirildi.

Barchamizga ma'lumki, oila-bobolar o'giti, ota ibрати, ona mehri bilan bunyod etiladigan jamiyatning bosh, asosiy bo'g'ini bo'lib, bu tabarruk qo'rg'onning bosh vazifasi avlodlar davomiyligini ta'minlash, solihu -solih, olimu-olima, fozilu-fozila farzandlarni tarbiyalab, voyaga etkazish, Vatan, el xizmatiga tayyorlashdan iboratdir.

Yangi O'zbekistonda mustahkam oilani qurish, oilaviy ajrimlarni, yoshlar jinoyatchiligini oldini olish, ularning bandligini ta'minlash, kasb- hunarga o'rgatish, dunyoga bir marta keluvchi farzandning hayotidan rozi bo'lib, sog'lom turmush tarzi, to'liq oila muhitida kamol topishi uchun yetarli shart- sharoitlarni yaratish va bu

muhim masalaga halaqit berayotgan har qanday to'siqqa barham berish davlatimiz rahbari va hukumatimiz siyosatining asosiy yo'nalishiga aylanganining barchamiz guvohimiz.

Mamlakatimizda yildan yilga namunali oilalar soni ko'payishi bilan birga arziyas sabablar tufayli ajrashib ketayotgan yosh oilalar ko'rsatkichi ham o'sib bormoqda. Yoshlarni mustaqil oilaga tayyorlashdagi kamchiliklar, ayniqsa qizlar, yigitlarimizning, ba'zi hollarda ota- onalarning o'zlari ham oila ma'naviyati ilmini o'zlashtirmagani oilaviy ajrimlarning asosiy sababi bo'lib qolayitganini hammamiz ko'rib turibmiz.

Yoshlarni, ayniqsa yigitlarni mustaqil oilaga tayyorlash, oilada erkaklarning munosib o'rnini ta'minlashda kitobdagi manbalar, Sharq allomalarining fikrlari va Hadislardan keng foydalanish, "Maslahatchim- kitob" harakatini kengaytirish bo'lg'usi otalarga juda muhimdir. Farzand tarbiyasi borasida ulug' ajdodlarimiz juda to'g'ri fikrlarni aytishganki, hayotning o'zi bu fikrlarning naqadar to'g'ri ekanligini isbotlamoqda.

M: Yusuf Xos Hojib "Agar farzand noqobil bo'lsa, unda ayb yo'q, ayb- otada!"

Abu Ali Ibn Sino: "Agar oila boshlig'i tajribasiz bo'lsa, u oila a'zolarini yahshi tarbiyalay olmaydi, oxir-oqibat u yahshi ijobiy natijalarga erishmaydi, yomon tarbiya nafaqat ushbu oila, balki qo'ni- qo'shni, mahalla-ko'yg'a ham yomon ta'sir qilishi mumkin. Oiladagi bola tarbiyasi ota- onaning jamiyatda tutgan mavqeidan qat'iy nazar ularning birlamchi vazifasidir. Ota nafaqat so'zi, balki amaldagi faoliyati bilan ham bolaga o'rnak bo'lishi kerak.

Erkak kishi oilaning barcha ehtiyojlarini qondirmog'i lozim, chunki bu uning birlamchi vazifasidir. Har bir bolani kasb- hunarga o'rgatmoq shart, yosh yigit biror hunarni o'rgansa, uni hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta'minlaydigan bo'lsagina uni uylantirish mumkin"

Men Andijon viloyati Asaka tumanida joylashgan 1- son politexnikumida ona tili va adabiyoti fanidan dars beraman.

O'quv rejasida belgilangan o'quvchilarning mustaqil ishlari bilan tanishish, shuningdek, Asaka tumani Chek, Kamolot mahalla fuqarolar yig'inlari aholisi (5-sektorga qarashli) o'rtasida o'tkazilgan Anketa-so'rovnoma natijalaridan yoshlarimiz, ota- onalarimiz ma'naviyatini oshirishda hali ko'p ishlar qilishimiz zarurligi, aholi, yoshlarimiz Sharq allomalarining oila xususidagi fikrlari, hadislarda oila masalaridan yetarli darajada xabardor emasligini aniqladik.

Barchamizga ma'lumki, oila xususida ulug' ajdodlarimiz, mutafakkirlarimiz o'z asarlarida tajriba va sinovlardan o'tgan ko'plab sermazmun fikrlarni keltirishgan.

Men ma'naviyat targ'ibotchilari bo'lgan ustozlarga qulay bo'lishi uchun allomalarimizning to'liq bo'lmasada ayrimlarining oila xususidagi fikrlarini jamlab, professional ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'limi

ustalari uchun dars jarayonida o'tkaziladigan "Ma'naviyat daqiqasi"da foydalanishlari uchun tavsiya tayyorlashga harakat qildim.

Maqsadim, bizning bitiruvchilarimiz egallagan kasbining ustasi, jamiyatda o'z o'rni bor xodim bo'lishi bilan birga namunali, mustahkam oilaning sohibu- sohibalari bo'lishsin. O'zbekona milliy qadriyatlarimiz, sharqona tarbiyamiz, ajdodlarimiz qoldirgan noyob merosimizni qadriga yetadigan va unga amal qiladigan ibratli ota- ona bo'lishsin.


Quyida sizlarning e'tiboringizga ulug' ajdodlarimizning oila, ilm, kasb- hunar haqidagi fikrlarini havola etmoqchiman.

**Bozorboyeva Zuhaxon Xoshimjonovna -Asaka tumani 1- son politexnikumining ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi.** Oila haqida ajdodlarimiz fikrlari

Inson va insoniy munosabatlar, shaxs va uning kamoloti muammolari uzoq asrlardan buyon jamiyatning eng ilg'or kishilari, olimlar, buyuk allomalar va donishmandlarning diqqat markazidagi asosiy masalalardan bo'lib kelgan.

Sharqning buyuk allomalari hisoblangan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshgariy, Kaykovus, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Uvaysiy, Nodira, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi ko'plab olim va yozuvchilar bu masalalar yuzasidan o'zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular xozirgi zamon fani uchun ham katta ijtimoiy ahamiyatga egadir. Ularning asarlarida oila va oilaviy munosabatlarga ham alohida e'tibor berilgan.

Men yuqoridagi mutatafakkirlarning ayrim pedagogik va psixologik qarashlarini bayon qilmoqchiman.



Zardushtiylikning qadimiy kitobi — «Avesto»da oila muqaddas dargoh ekanligi, oila barqarorligida er va xotinning teng mas'ulligi, farzand tarbiyasi to'grisidagi fikrlar bayon etilgan. Oilaning tinch va farovon bo'lishi nimalarga bog'liq ekanligi haqida esa: «Porso, inson uy tiklab, olovga, oilasiga, xotin va farzandlariga o'rin ajratib bersa, uyida noz-ne'matlari muhayyo bo'lib, xotin va farzandlari farovon yashasa, uyida e'tiqod, sobit olovi alangali, boshqa narsalari ham mo'l-ko'l bo'lsa, o'sha manzil muhtaramdir», — deb yozilgan. Bu kitobda ko'rsatilishicha, oilada ota etakchi bo'lgani ma'kul. Shuningdek, unda ifodalangan oila va oilaviy munosabatlarga hamma rioya etishi lozim bo'lgan. Eng ahamiyatli jihati shundaki, unda er-xotinni o'zaro sodiq, g'amho'r, mehribon bo'lishlari lozimligi va ayolning haq-huquqini himoya qilish o'sha davrda ham qonun darajasiga ko'tarilganligi ma'lumdir. Umuman olganda, zardushtiylik davridanoq oila masalalariga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, bu esa oilaning jamiyatda tutgan o'rnini va mavkeini mustahkamlash uchun azal davrlardan ham zamin yaratilganligini kuzatamiz.

### ABU NASR FAROBIYNING IJODI



Farobiy yashagan davrda O'rta Osiyoda feodal urushlar avjga chiqqan, ilm va ma'rifat e'tiborsiz qolgan edi. Shu sababli ko'p olimlar Arab halifaligining markaziy shaharlariga masalan Bog'dod shahriga borib o'z bilimlarini oshirishga harakat qilgan edilar. Farobiy shu maqsad bilan Bog'dodga jo'ndaydi. Bog'dod yirik markaziy shahar bo'lib, unda turli xalq vakillari uchratish, ilmning juda ko'p sohalariga doir kitoblarini topish mumkin bo'lgan. Farobiy Bog'dodda tashkil etilgan "Baytul Hikmat"da halifalikni turli o'lkalaridan jumladan O'rta Osiyodan kelgan yirik olimlar bilan birga hamkorlik qildi, ulardan ko'p ilmlarni o'rgandi.

**Abu Nasr Forobiyni** inson kamoloti, baxti, ta'lim va tarbiyasi, umuman ahloqi, dinga munosabati haqidagi qarashlari umumfalsafiy va tushuntirishlardan iborat o'gitlar bo'lib, ular ahloq nazariyasini boyitdi. Uning ta'limotlarida keltirilishicha, haqiqiy baxt bir odamning boshqasiga nisbatan g'ayirligi, zulmi yo'qolgandagina bo'ladi, oila a'zolarining bir-birlariga samimiy munosabatlari, mehru oqibatlari esa ana shu oiladagi odamlarning baxtini tashkil qiladi. Bundan tashqari, har bir ota-onaning o'z farzandlari uchun birlamchi ustoz, yo'l ko'rsatuvchi ekanligi va aynan ular bolada ta'lim-tarbiyaga kerakli tayyorgarlik holatini shakllantirish ta'siriga ega ekanligi to'grisidagi xulosalar mutafakkir qarashlarining xozirgi kunlar uchun ham naqadar ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.



**Abu Rayhon Beruniy** (973—1048) qator fanlar bobida o'z izini qoldirgan donishmanddir. Uning ko'pgina asarlarida inson odobi va axloqi xususidagi noyob fikrlar o'z ifodasini topgan. Mutafakkir o'zining «Minerologiya», «Geodeziya», «Xindiston», «O'tgan avlodlar obidalarini» nomli asarlarida inson shaxsi, uning kamoloti, aql- idroki, halovat va lazzati, sabr-toqat va kamtarlik, go'zallik va dili poklik, xudbinlik kabi tushunchalarga inson ruhiyatining bilimdoni sifatida ta'rif bergan. U bunday yozadi: «Inson jamiyatda o'z qarindosh-urug'lari bilan birlashib olishga majburdir, bundan maqsad bir-birini qo'llab-quvvatlash hamda har bir kishining ham o'zini, ham boshqalarni ta'minlash uchun ishlarni bajarishdir». (Minerologiya, 1966, 10-bet).

Abu Rayhon Beruniy «ozodalik va orastalik olijanoblikning o'zagi» bo'lishi kerakligini uqtiradi; insonning tashqi yoqimli qiyofasi bilan uning axlokiy qiyofasi o'rtasidagi bog'liqlik haqida gapirib, «tishni yuvib, ko'z va qovoqlarni toza tutish, ularga surma qo'yish, sochni esa zarur bo'lganda bo'yab, tirnoqlarni olib turish va silliqlash- inson salomatligi va ruhiy pokligining asosidir,“ deb ta'kidlaydi.


Bu fikrlar hozirgi zamonda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q, chunki oila a'zolarining, er- xotinning ushbu ko'rsatmalarga amal qilishi oila totuvligining asosiy zaminlaridan biridir.

Axloq-odob egasi bo'lgan inson eng avvalo o'z yurish-turishi, muomala madaniyatida, hayot kechirishida, oila barqarorligida namuna bo'lishi kerakligi haqidagi fikrlari olimning oila etikasi bo'yicha ibratli qarashlaridan namunadir: «Inson o'z ehtiroslariga hukmron, ularni o'zgartirishga qodir, o'z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagudek narsalarga aylantirishga, uni ma'naviy shifokorlik bilan davolashga hamda asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir».

Beruniy ustozlari izidan borib, o'zining gumanistik qarashlari bilan oila ilmiga munosib hissasini qo'shdi. U insonlar o'rtasida o'zaro bir-birlarini tushunish,

tenglik va boshqaruvda adolatni himoya qilib chiqdiki, bu qarashlar bizning davrimizda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yuq.

Oilaviy munosabatlar va bu sohaga oid qarashlar tizimida Sharq mutafakkirlaridan biri, butun Evropa xalqlari ham uning qomusiy bilimdonligini tan olgan alloma



**Abu Ali ibn Sinodir (980—1037).** Buyuk olim sifatida u barcha hodisalarning ilmiy mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Ibn Sinoning pedagogik va psixologik qarashlari ijtimoiy asosda qurilgan bo'lib, u bola tarbiyasida umuminsoniy tamoyilning qo'llanilishini yoqlab chiqqan va tarbiyachi ota-onalarga bolani qattik tana jazosidan ko'ra, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma'qulligini uqtirgan. Mutafakkirning qalamiga mansub bo'lgan «Donishnoma», «Risolayi ishq», «Tib qonunlari», «Uy xo'jaligi» kabi qator asarlari O'rta Osiyo xalqlari axloq-odobi, psixologiyasi va tabobat olamida alohida o'rin tutgan yirik ilmiy tadqiqotlar hisoblanadi.

Axloqiy tarbiya masalalarida alloma oilaning o'rnini alohida ta'kidlagan. Oila va oilaviy munosabatlar masalasi uning «Tadbiri manzil» asarida o'ziga xos tarzda bayon etilgan.

Oilaviy munosabatlarning turli tomonlarini yoritir ekan, Ibn Sino, avvalo oila boshligi oldiga qator talablarni qo'yadi. "Oila boshlig'i, deb yozadi u, ham nazariy, ham amaliy jihatdan oilada tarbiya masalalarini mukammal o'zlashtirmog'i lozim. Agar oila boshlig'i tajribasiz bo'lsa, u o'z oila a'zolarini yahshi tarbiyalay olmaydi, oxir-oqibat u yahshi ijobiy natijalarga erisha olmaydi, yomon tarbiya nafaqat ushbu oila, balki ko'shnilariga, mahalla-ko'ygga ham yomon ta'sir qilishi mumkin. Oiladagi bola tarbiyasi ota-onaning jamiyatda tutgan mavkeidan kat'iy nazar, ularniig birlamchi vazifasidir," deb hisoblaydi, Ibn Sino. Ota-ona davlat boshlig'imi yoki oddiy fuqaromi,

baribir, u bola tarbiyasi borasida mas'uldir. Davlat boshliqlari, rahbarlar bola tarbiyasi xususida barchaga ibrat bo'lmoqlari lozim.

Ibn Sinoning bola tarbiyasi, tarbiya psixologiyasi va rahbarlarga qo'ygan ushbu talablari o'sha davrda qanchalik taraqqiyparvar va zarur bo'lsa, bizning bugungi kunimizda ham u o'z kuchini yuqotgani yo'q. Uning fikricha, "Tarbiyachi, ya'ni otana naaqqat so'z bilan, balki amalda ham bola ruhiga ta'sir ko'rsatmog'i lozim". (Ibn Sino. "Tadbiri manzil", 44-bet.)

Ibn Sinoning sevgi-muhabbat va er-xotin munosabatlari borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir, «Eng yuksak sevgi deb, ta'kidlaydi u, — bu insoniy sevgi bo'lib, bunday sevgi kishini sahovatli qiladi, uni oq ko'ngil va jozibali kishiga aylantiradi». Allomaning fikricha, sevgi inson zimmasiga juda katta axlokiy va xuquqiy mas'uliyat yuklaydi. U inson baxtining negizi, deganda oshiqlik emas, balki oshiq-ma'shuqlikni tushunadi. Oshiq-ma'shuqlik bilan turmush qurish oila mustahkamligining asosi sifatida ta'kidlanadi.

Turmush qurgan er-xotinlar munosabati borasida esa mutafakkir, «Erkak kishi oila boshlig'idir, u oilaning barcha ehtiyojlarini qondirmog'i lozim, chunki bu uning birlamchi vazifasidir», — deb yozadi. Ayol esa erkakning munosib yo'ldoshi, u bola tarbiyasi borasida eng yahshi voris va yordamchidir. Uning er-xotin munosabatlari xususidagi fikrlari ham o'sha davr uchun o'ta ilg'or va ahamiyatli edi. U o'zining «Oila ho'jaligi» kitobida ayollar ahloqan eng maqbul, yuqori sifatlarga ega bo'lmoqlari lozim, deb yozadi, shu kitobning «Afsofiy bextarin zanxo» (Ayollarning yahshi fazilatlari haqida) bo'limida ularning quyidagi fazilatlari ta'kidlanadi: «Ayol aqlan dono, uyatchan, iboli, iffatli bo'lib, ko'p gapirmasligi lozim: u eriga bo'ysunmog'i, uni sevmog'i, farzandlar tug'ib, doimo halol, pok, to'g'ri so'z, kamtar bo'lishi kerak, injiq bo'lmasligi, o'z iffati va obro'sini to'kmasligi lozim; u hech qachon eriga nisbatan dimog'dorlik, viqor hissini ko'rsatmasligi, o'z ishlarini yahshi, o'z vaqtida bajarib, oilaning moddiy boyliklarini tejankorlik bilan ishlatmog'i lozim; o'z xulk-atvori bilan o'z erining qalbida hadiksirash hissiga o'rin qoldirmasligi kerak». (Ibn Sino. «Tadbiri manzil», 38-bet).

Ibn Sinoning mehnat tarbiyasi borasidagi fikrlaridan biri, masalan, har bir bolani, deydi u, «biror hunarga o'rgatmoq shart, yosh yigit biror hunarni o'rgansa, uni hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta'minlaydigan bo'lsagina, otasi uni uylantirib qo'ymog'i lozim», — deb hisoblaydi. Demak, allomaning oila kurish uchun zarur ijtimoiy va iqtisodiy yetuklik haqidagi fikrlari biz uchun xozir ham zarurdir. Sababi, oilaning mustahkamligi va baxtli bo'lishi aynan oila qurganlarning ham ijtimoiy, ham iqtisodiy jihatdan yetukliklariga va ayniqsa, yigitning oila qurishga tayyorgarligiga bog'liqdir.

XII asrning buyuk mutafakkiri va shoiri



**Yusuf Xos Hojib o'zining «Kutadgu bilig» — «Saodatga boshlovchi bilim»** — kitobida va undan keyingi qator asarlarida o'zining ahloq hamda hayotga oid qarashlarini bayon etadi.

Inson faqat jamiyatdagina kamolotga yetishi mumkin, muloqot va ijtimoiy-foydali mehnat uning rivojlanishi va yashashining mezonidir, deb hisoblaydi. «Boshqa odamlarga foydasi tegmaydigan inson — o'likdir», — deb yozadi u. (o'sha asar, 529-bet). Odam kim bo'lishidan qat'iy nazar, shoxmi, gadomi, avvalo, insoniy bo'lishi kerak, chunki «dunyoda o'lmas bo'lib, faqat insoniylik qoladi, yahshi ahloqiy fazilatlarga ega kishi har qanday qimmatbaho durlardan ham qimmatlidir».

Shoirning fikricha, farzand ko'rish va unga tarbiya berish har bir inson uchun buyuk baxtdir, ularsiz hayotning ma'nosi yo'q. Lekin bu narsa ota-onaga juda katta mas'uliyat yuklaydiki, uning uddasidan chiqmoq, har bir ota-ona uchun ham farz, ham qarzdir. Shuning uchun ham **Yusuf Xos Hojib oilaviy tarbiyani bola ahloqiy taraqqiyotining asosi, deb hisoblagan: «Agar bolaning hulqi yomon bo'lsa, bunda bolaning aybi yo'q, hamma ayb — otasida».** Shuning uchun ham ota-ona, ayniqsa, ota bunga katta e'tibor bermog'i lozim.

Yusuf Xos Hojib odamlar o'rtasidagi sevgi-muhabbatni tarannum etgan. U sevgini oilaviy baxt va ijtimoiy muvaffakiyatlarning garovi, deb hisoblagan. «Yigit uylanmasdan avval kelinning kimligini, uning kelib chiqishi, hulq-atvorini bilishi kerak», — deydi u. Uning ahloqiy didaktikasi O'rta Osiyodagi ilg'or fikrlarning taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan, shuning uchun ham uning qarashlari musulmon xalqlari o'rtasida keng tarqalgan va ko'pgina shov-shuvlarga sabab bo'lgan.



**Kaykovus** 63 yoshida o'g'liga atab «QOBUSNOMA» yozib, unda o'zining bola tarbiyasi, oilaviy hayot, shaxs kamoloti masalalarini bayon etdi. Kitobdagi asosiy g'oya — yoshlarni ota-onani xurmat qilishga, e'zozlashga chaqirishdir. Uning bu boradagi fikrlari pandnomaning «Ota-ona xaqqini bilmoq zikrida» bobida bayon etilgan: «Har bir farzandki, oqil va dono bo'lsa, ota-ona, mehr-muhabbatini ado etmakdin bosh tortmagay». U bu borada «Nima eksang, shuni o'rasan» degan maqolni ishlatib, u oilada bola tarbiyasining qo'yilishi ana shu muhim maqol asosida ko'rilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaydi. Ma'lumki, «QOBUSNOMA» tarbiya borasida shunchalik nodir asarlardan hisoblanadiki, uni mashhur xind masali «Kalila va Dimna», Nosir Xisravning «Saodatnoma», Alisher Navoiyning «Mahbub –ul qulub» kabi asarlari qatorida ko'radilar. Undagi fikrlar va ko'rsatmalar ota-onalar uchun, ayniqsa o'smir va o'spirinlik yoshidagi yigit-qizlarni tarbiyalanishida muhim dasturdir.

Turmush madaniyati, odob-axloq, sevgi-muhabbat borasida o'ziga xos qaytarilmas fikrlar sohibi buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» yoki «Qalblarning sevgisi» deb nom qo'yilishi bejiz emas. Chunki bu asarda A. Navoiy insonlarga qalbidagi eng kerakli o'gitlarini bayon etib, ularni turmushdagi, oilaviy hayotdagi turli hodisa va vaziyatlardan chiqishga imkon beruvchi yahshi fazilatlar, ularni tarbiyalash masalalariga diqqatni qaratadi.

Risolaning «Uylanish va xotinlar to'g'risida» bobida u uylanish va uning foydasi, oilaviy munosabatlar haqida durdona fikrlarni bayon etadi, unda asosan insoniyat dunyosida mavjud bo'lgan 3 xil sevgining naqadar go'zal, tabiiy va insoniyat taraqqiyoti uchun zarurligini zikr qiladi. Insoniy sevgi, chin muhabbat, ikki xil jinsning turmushda barkamollik kasb etishi kabi g'oyalarni tarannum etgan bu nodir asar bugungi davrimiz uchun ham g'oyat qimmatlidir.

HUNAR AFZUNLIGI BILA BALAND QADR VA OLIY TAB' BO'LMOQ ZIKRIDA Ey farzand, ogoh bo'lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf' etkurmas.

So'ralmag'on so'zni aytmagil va behuda so'zdan parhez qilgil, har bir so'zni so'rasalar, rost aytgil. Sendan talab qilmasa kishiga nasihat qilmagil, pand bermagil, xususan seni tinglamagan kishiga hech so'z dema, chunki bunday odamlar pandni eshitmaydilar. Ko'p kishilarning orasida bir kishiga pand-nasihat qilmagil.

**O'zbek mumtoz adabiyotining asoschisi, g'azal mulkingning sultoni Alisher Navoiyning oila xususidagi qarashlari.**

“Hayratul abror” asarida oila haqida, ota-onani e'zozlash to'g'risida g'oyat teran mulohazalar bayon etilgan.”Boshni fido ayla ato qoshig'a,

Jismni qil sadqa ano boshig'a.

Ikki jahoningga tilarsan fazo,

Hosil et ushbu ikkisin rizo.

Tun-kunungga aylagali nur posh,

Birisin oy angla, birisin quyosh



Turmush madaniyati, odob-axloq, sevgi-muhabbat borasida o'ziga xos qaytarilmas fikrlar sohibi buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» yoki «Qalblarning sevgisi» deb nom qo'yilishi bejiz emas. Chunki bu asarda A. Navoiy insonlarga qalbidagi eng kerakli o'gitlarini bayon etib, ularni turmushdagi,

oilaviy hayotdagi turli hodisa va vaziyatlardan chiqishga imkon beruvchi yahshi fazilatlar, ularni tarbiyalash masalalariga diqqatni qaratadi.

Risolaning «Uylanish va xotinlar to'g'risida» bobida u uylanish va uning foydasi, oilaviy munosabatlar haqida durdona fikrlarni bayon etadi, unda asosan insoniyat dunyosida mavjud bo'lgan 3 xil sevgining naqadar go'zal, tabiiy va insoniyat taraqqiyoti uchun zarurligini zikr qiladi. Insoniy sevgi, chin muhabbat, ikki xil jinsning turmushda barkamollik kasb etishi kabi g'oyalarni tarannum etgan bu nodir asar bugungi davrimiz uchun ham g'oyat qimmatlidir.

**HUNAR AFZUNLIGI BILA BALAND QADR VA OLIY TAB' BO'LMOQ ZIKRIDA** Ey farzand, ogoh bo'lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf' etkurmas.

So'ralmag'on so'zni aytmagil va behuda so'zdan parhez qilgil, har bir so'zni so'rasalar, rost aytgil. Sendan talab qilmasa kishiga nasihat qilmagil, pand bermagil, xususan seni tinglamagan kishiga hech so'z dema, chunki bunday odamlar pandni eshitmaydilar. Ko'p kishilarning orasida bir kishiga pand-nasihat qilmagil.

A.Navoiy ayol kishining oiladagi o'rniga quyidagicha to'xtaladi: «yaxshi xotin — oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi, husnli bo'lsa ko'ngil yozig'i, xushmuomala bo'lsa jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib -intizom bo'ladi, asbob-anjomlar saranjom turadi. Kishi bu kabi jufti halol bilan qovushsa, agar bunday baxtga erishsa, g'am va kulfatda sirdoshga, oshkor va pinhoni dard-alamda hamnafas tan mahramiga ega bo'ladi. Turmushda boshingga har qanday jafo tushsa, hamdarding u. Teskari aylanuvchi falakdan har balo kelsa, ko'makdoshing u. Ko'nglingga g'am yuzlansa, u hamroh, badaningga xastalik va zaiflik kelsa, uning ham joni halak, ammo xudo ko'rsatmasin, munofiq xotin uchrasa, o'z uyingda halokatli illat paydo bo'ladi. U beandisha, shallaqi bo'lsa, ko'ngil undan ozor chekadi va yomonlik axtaruvchi bo'lsa, undan ruh azob chekadi. Tili achchiq bo'lsa, barchaning dilini yaralaydi, pokiza bo'lmasa, eriga yuzi qoralik keltiradi, agar mayho'r bo'lsa, uy odobi yo'qoladi, ahloqsiz bo'lsa, oila rasvo bo'ladi».

Buyuk allomaning oilaviy baxt, sevgi va er-xotin munosabatlari, ularga zarur bo'lgan fazilatlar borasidagi bunday fikrlarini bilish, ularga rioya qilish har bir yoshning muqaddas burchi bo'lmog'i shart.

Turkiston xalklarining psixologiyasi, turmush tarzidagi o'ziga xosliklar, o'zbek ayolining odobi va ahloqi, oilada o'zini tutishi juda ko'p olimlar va allomalarni qiziqtirib kelgan.

Masalan, XX asrning 70-yillarida farangistonlik etnograf, olim, musavvir Burdon xonim Turkiston ellari o'rtasida tadqiqot olib borgan edi. U bu xalqlarning hayot tarzi bilan tanishish jarayonida ayollarning odobi, bolalarga munosabati va er-xotin munosabatlarining guvohi bo'ldi. Unga o'zbek ayolining o'z uyida, to'y-marosimlarda, qo'ni-qo'shnilar bilan muloqotda o'zini tutishi, ahloq-odobi, sharm-

hayosi uni hayratda qoldirdi. «Biz, — deb yozgan edi u, madaniylashgan Ovro‘po ayollari ahloq-odobni, iffatni bizning nazarimizda yovvoyi hisoblangan turkistonlik ayollardan o‘rganmog‘imiz joiz ekan... Lesgaft, Didro nazariyalaridan mutlaqo bexabar bu ayollar ahloq nazariyasidan qo‘llanma yozsalar arzir ekan...» (“Saodat” jurnali, 1993, 10.)

Olima xonimning zamondoshi va maslakdoshi XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida yashab ijod qilgan Faxr-ul banot Sibgatulloh qizi ham o‘z davrining olimasi edi. Uning asarlari birinchi navbatda xotin-qizlarga qaratilgan bo‘lib, «Qizlar tarbiyasi», «Oila saboqlari» kabi kitoblari qizlar maktablarida darslik sifatida ham qo‘llanilgan. Bu risola 87 saboqdan iborat bo‘lib, unda hulq-atvor, yurish-turish, muomala madaniyatining psixologik asoslari berilgan.

Qadimdan qizlar tarbiyasi, ularni e‘zozlash, ularga o‘zgacha mehr bilan qarash xalkimizning oliy fazilati bo‘lgan. Shu sababdan xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham bu masalaga e‘tibor berilgan. Buning tasdig‘i sifatida ushbu rivoyatni keltirishni lozim deb topdik.

«Bir vaqtlar davlatmand aqlli odamning qizi aqlli-odobli yigitga uzatilibdi. Kuyov odobli bo‘lganligi uchun qaynota tomonidan juda sevikli kuyov bo‘libdi.

Qizning ukalari atrofida gilarining ta’siridanmi, yoki yoshlik qilibmi, otalari pochchasini bunchalik yaxshi ko‘rishiga g‘ayrlik qila boshlabdilar.

O‘g‘illaridan biri akasiga bir kun: — Akajon, otam hadeb «kuyovim, kuyovim» degani degan. Hamma vaqt pochchamiz uyga kelganda turli shirin ovqatlar qilinadi. Otam «kuyov unday, kuyov bunday» deb maqtaydi, xolos. Kuyov shunday yaxshimi? — deydi.

Bu gaplardan xabar topgan ota — ey, mening aqli to‘lishmagan o‘g‘ilginam, kuyovimni nega yaxshi ko‘rishimni bilasanmi? — deydi. U sen bilan mening nomusimizni qo‘riqlaydi. Qizimizni, onangni, farzandimizni, bolajonimizni himoya qiladi. Aslida men qizimni himoya etishim kerak, lekin xozir u himoya kilayapti. Men uni yaxshi ko‘rmay kimni yaxshi ko‘ray? Qizimizni juda yahshi ko‘rganim uchun kuyovimni juda yahshi ko‘raman. Kuyovimni sevisish qizimni sevisish demakdir. Agar qizimga kuyovim qaramasa, men qarashim kerak bo‘ladi. Sevikli o‘g‘illarim, ko‘zim nurlari! Ayol, ona, qiz oilaning nomusidir. Nomusni saqlash, qo‘riqlash mard erkaklarning ishidir. Mana, nomus nimaligini sizlarga o‘rgatdim. Men qanday bo‘lsam, siz ham shunday bo‘lasiz. Onangiz sizning nomusingizdir. Men o‘lsam, pochchangizga bir gap bo‘lsa, opangizga siz qaraysiz, uning nomusini siz qo‘riklaysiz. Shunday ekan, mening aytganimga quloq solib, pochchangizga mehr va xurmat ko‘rsatasiz,”- deydi.

Shariatda qizini turmushga chiqarib, undan aloqasini uzgan ota haqiqiy ota hisoblanmagan. Haqiqiy ota qiz farzandini ham astoydil tarbiyalaydi, ham turmushga beradi, ham keyinchalik unga mehribonligini ko‘rsatib turadi. Farzandi, avlodi qadr-

qimmatini bilmagan, avlodiga muhabbati bo'lmagan, avlodini yomon yo'ldan qaytarmagan, to'g'ri yo'lga boshlamagan ota haqiqiy, chin musulmon emas, deyiladi.

Shuning uchun ham hadisi- sharifda "har kimki uch qiz farzand o'stirib, ularni turmushga berib, ularga yaxshilik kilishni davom ettirsa, ul kimsa jannatidir," deyilgan.


### **Buyuk sohibqiron Amir Temur oila qurish masalasida**



Buyuk sohibqiron Amir Temur oila qurish masalasiga davlat yumushlaridek juda jiddiy e'tibor bergan . Yengilmas sarkarda oila qurish,farzandlarni uylantirish va kelin tanlash masalasida quyidagi fikrlarni bildirgan."O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim..Bu ishini davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl- nasabini , yetti pushtini surishtirdim.Xos odamlar orqali sog'liq- salomatligini, jismonan kamolatini aniqladim. Kelin bo'lmish nasl- nasabasi, odob- ahloqi,sog'lom va baquvvatligibilan barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el- yurtga kata to'y- tomosha berib, kelin tushirdim.(Amir Temur o'gitlari,-T.1992,58- bet)"

#### **Oila va islom.**

Ma'lumki, Islom dinining muqaddas manbalari – «Qur'oni Karim» va «Hadisi Sharif»da oila, oilaviy munosabatlarga oid qarashlar o'z ifodasini topgan. «Qur'oni Karimda»: «Hotinlaringiz zirotgohingizdir» deyiladi. Buning ma'nosi oila qurishdan ko'zlangan asosiy maqsad – farzand ko'rish, ularning komil insonlar bo'lib voyaga etishlarini ta'minlash ekanligidir. Shuningdek, islom ma'naviyatida oilani halol, pok saqlash, erkak va ayolning bir-biriga bo'lgan sadoqati, maishiy buzuvchilikning katta gunoh ekanligi takror-takror uqtiriladi. Chunonchi, «Agar bir shaharda loaqal bir ayol bir marta buzuvchilik ko'chasiga kirib, harom orttirs, bu shahardan qirq yil fayzu-barakat ko'tarilib ketadi» deyilgan. Shunday ekan, ma'naviy jihatdan kamolotga etishmay turib, iqtisodiy farovonlikni ta'minlash mumkin emas.



**Abdurahmon Jomiy:** «Farzandning ota-ona oldidagi burchi masala»sini quyidagicha ifodalaydi:- odoblari shundaki, farzand ota-ona nima desa diqqat bilan quloq soladi;- ularn oldiga nimaniki buyursalar va buyurgan narsalar jinoyat bo‘lmasa jonu dil bilan bajaradi; ular o‘tirgan joylaridan tursalar, ular ham irg‘ib turadi; chaqirsalar “labbay” deb javob beradi, ularni xursand qilishadi, doimo orzumand bo‘ladi, ularni oldida ta’zim bilan turadi, qilgan ishlarini minnat qilmaydi; ota-onaning qilgan ishlaridan achchiqlanib, ularga xo‘mrayib qaramaydi; ruxsatsiz safarga ketmaydi, - deya tushuntiradi.

## Abdulla Avloniy hayot faoliyati

□ Turkistonda yuritilayotgan istibdod siyosatiga ham, o'lkaning o'zidagi yurtfurush amaldorlarning zulm – zo'ravonligiga bir kun kelib chek qo'yishini aytadi. Avloniy faoliyatida gazetachilik, teatr ishlari, o'qituvchilik alohida o'rin tutadi. U Oktyabr o'zgarishiga qadar "Shuhrat" (1907), "Turon" (1917) nomli gazetalarni chiqardi, ma'lum muddat Turkistonning ilg'or va mashhur gazetasi "Sadoi Turkiston"da faoliyat ko'rsatdi, sho'rolar davrida esa 1918-yilda "Ishtirokiyun" gazetasida muharrir bo'lib ishladi.



Abdulla Avloniy.

Abdulla Avloniyning oila pedagogikasi va psixologiyasiga oid fikrlari ham diqqatga sazovordir. Uning 1913 yilda yozgan va 1917-yilda ikkinchi marta nashr qilingan «Turkiy guliston yohud ahloq» asari Kaykovusning «Qobusnoma», Yusuf Xos Xojibning «Kutadgu bilik», Nosir Hisravning «Saodatnoma», Sa'diyning «Guliston va bo'ston», Jomiyning «Bahoriston», Navoiyning «Mahbub- ul-qulub» asarlariga o'hshash janrda yozilgan bo'lib, muallif unda oilada bola tarbiyasi va umuman oilaning ijtimoiy rolini ochib bergan.

Avloniy tarbiya jarayonida oilaning va jamoatchilikning o'rnini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, bolalarda ahloqiy hislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g'oyat katta ahamiyatga ega.

Bolaning shaxs sifatlariga to'xtalib, unda oilaning rolini ko'rsatar ekan, «qush uyasida ko'rganini qiladur», — deydi. «Inson javhari qobildir, agar yaxshi tarbiya topib, buzuq hulqlardan saqlanib, go'zal hulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, bahtiyor bir inson bo'lub chiqar...». Demak olim bola tarbiyasida oilaning rolini birlamchi qilib qo'yadi:

“... tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq lozim ekan. Tarbiyani kim qilur? Qayda kilinur? degan savol keladur. Bu savolga «birinchi uy tarbiyasi — bu ona vazifasidir. Ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasi — bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir, — degan javob bersak». Ko'rinib turibdiki, Avloniy bolaning mukammal tarbiyasi nafaqat oilaga, balki maktab va jamoat tashkilotlariga ham bog'liqligini e'tirof etib, tarbiya masalasini umuminsoniy vazifalar darajasida talqin etgan.

Oila va kasb- hunar, ilm haqidagi maqollar.

Oila — insonning qalb bog'lari."

"Oila — baxtning dastlabki manzili."

"Oila — yaxshi yuraklarning to'plami."

"Oila — tinchlikning manzili."  
"Oila — eng yaxshi tarbiya muassasasi."  
"Oila — har qanday muammolarga javobdir."  
"Oila — baxtli hayotning tayanchidir."  
"Oila — yer yuzidagi eng buyuk yutuq."  
"Oila — mehr-oqibatning ilohiy manzili."  
"Oila — yurtning mustahkam poydevori."  
"Oila — ezgulikka yo‘l ko‘rsatadigan nur."  
"Oila — tinchlikning boshlanishidir."  
"Oila — qalbni iliqlantiradigan joy."  
"Oila — muhim bo‘lgan har bir inson uchun quvonch."  
"Oila — hayotning shirinligi va quvonchidir."  
Kasb-hunar:  
"Kasb — insonning baxtini yaratadi."  
"Kasb-hunar — mehnatning mukofoti."  
"Kasb — insonni maqsadga yetaklaydi."  
"Kasb-hunar — har bir insonning yaratuvchisi."  
"Kasb — dunyoni boshqaradigan kuch."  
"Kasb-hunar — muvaffaqiyatning kaliti."  
"Kasb — shaxsiy yuksalishning yo‘li."  
"Kasb-hunar — ijodiy imkoniyatlarni ochadi."  
"Kasb — har bir insonning tayanchidir."  
"Kasb-hunar — maqsadga erishishning asosidir."  
"Kasb — o‘zligini topishning yo‘li."  
"Kasb-hunar — orzu qilishning amaliy qismidir."  
"Kasb — bilim va mehnatning natijasi."  
"Kasb-hunar — hayotdagi muvaffaqiyatning garovidir."  
"Kasb — insonning dunyoqarashini kengaytiradi."

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2017 yil 14 yanvar kuni Vazirlar Mahkamasida yil yakunlariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi, 2018 yil 7 fevral kuni va boshqa yig‘ilishlar, videoselektridagi nutqlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomalari.
4. G.B.Shoumarov tahriri ostida "Oila psixologiyasi" T.SHarq 2008yil.
5. A.Avloniy "Turkiy guliston yohud ahloq." O‘qituvchi. 1979 yil
6. Karimova B.M. "Oilaviy hayot psixologiyasi" T.2006yil

7. Kaykovus."Qobusnoma".5.Sharipova D.J.,Semyonova A."O'quvchilarga gigienik ta'lim- tarbiya berish"O'qituvchi.1983 yil
8. P.B.Shoumarov,I.O.Haydarov "Oila psixologiyasi" Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. 2008yil.T.SHarq nashriyoti